



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 28-dekabr

765-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 27-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025 - 2027 yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 24-dekabrda PQ-454-son qarori ijrosini ta'minlash haqida"gi 638-6-0-Q/24-sonli qarori to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025 - 2027 yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 24-dekabrda PQ-454-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 27-dekabrda 638-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 27-dekabrda 638-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

Quyidagilar:

2025-yilda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishning asosiy parametrlari hamda 2026-2027 yillar uchun maqsadli mo'ljallar 1-ilovaga muvofiq;

2025-yilda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish doirasida moliyalashtiriladigan yo'nalishlarning asosiy parametrlari 1a-ilovaga muvofiq;

2025-yilda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi ob'ektlarini ishga tushirish va yangi quvvatlar yaratishning maqsadli ko'rsatkichlari hamda 2026-2027 yillar uchun maqsadli mo'ljallar 2-ilovaga muvofiq;

2025-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida ob'ektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash bo'yicha manzilli ro'yxatlar 3 - 16-ilovalarga muvofiq;

2025-yilda maxsus iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonolari, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonolari hamda yirik ishlab chiqarish loyihalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlash bo'yicha manzilli ro'yxat 17-ilovaga muvofiq;

kelgusi yillarda loyiha hujjatlari ishlab chiqiladigan istiqbolli ob'ektlarning manzilli ro'yxat 18-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturining amalga oshirilishini samarali tashkil etish bo'yicha "yo'l xaritasi" 19-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Dastur doirasida zamonaviy standartlarni keng joriy qilish, shu jumladan, loyihalashtirilayotgan binolarda energiya tejovchi texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalaridan, ekologik toza va energiya samaradorligi yuqori bo'lgan qurilish

materiallaridan foydalanish inobatga olinmagan holatlarda yangi ob'ektlar bo'yicha loyiha-smeta hujjatlari ekspertizadan o'tkazilmasligi belgilanganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-dekabrda PQ-43-son qaroriga asosan, moliyalashtirish manbai aniq bo'lmaganda, pudrat (loyiha) tashkilotlari tanlov (tender) o'tkazilmasdan tanlab olinganda ("Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno) xarajatlarni amalga oshirish va ishlarni bajarish ta'qiqlanganligi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, vazirlik va idoralar hamda xo'jalik birlashmalari buyurtmachilar:

a) bir hafta muddatda moliyalashtirish hajmlarini qurilish- montaj ishlarining kalendar jadvallari bilan uzviy bog'liq holda 2025-yil uchun yildan-yilga o'tuvchi qurilish ob'ektlarining manzilli ro'yxatini belgilangan tartibda tasdiqlashi;

b) ikki oy muddatda 2025 yilda yangidan boshlanadigan loyihalar (ob'ektlar) bo'yicha tasdiqlangan loyihaoldi va loyiha hujjatlari asosida belgilangan tartibda xarid qilish tartib-taomillarini yakunlash va tanlov (tender) g'oliblari bilan pudrat shartnomalarini tuzish choralari ko'rishi;

d) xarid qilish tartib-taomillari yakunlanganidan so'ng bir hafta muddatda 2025 yilda yangidan boshlanadigan loyihalarning (ob'ektlarning) manzilli ro'yxatlarini belgilangan tartibda tasdiqlashi;

f) 2025-yil 15-fevralga qadar Dasturning asosiy parametrlarini bajarish, shu jumladan, loyihalar (ob'ektlar) bo'yicha kapital qo'yilmalarni o'zlashtirishning prognoz ko'rsatkichlarini choraklar kesimida tasdiqlab, Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etishi belgilanganligi,

Bunda:

2025-yilning birinchi yarim yilligida barcha loyihalar (ob'ektlar) bo'yicha yillik rejalashtirilgan o'zlashtirish hajmlarining kamida 40 foizini, shu jumladan yildan-yilga o'tuvchi loyihalar (ob'ektlar) bo'yicha kamida 50 foizini bajarishi;

2025-yilda ishga tushiriladigan ta'lim muassasalari ob'ektlarini 15-avgustga qadar, issiqlik ta'minoti, sog'liqni saqlash va tibbiy-ijtimoiy muassasalar ob'ektlarini - 1 oktabrga qadar, ichimlik va oqova suv, avtomobil yo'llari, ko'priklar va yo'l o'tkazgichlar, irrigatsiya va melioratsiya tizimlari ob'ektlarini - 1 dekabrga qadar foydalanishga topshirish nazarda tutilganligi;

har oy yakuni bo'yicha keyingi o'yning 3-sanasiga qadar Dasturdagi har bir loyihaning (ob'ektning) prognoz ko'rsatkichi va asosiy parametrlari bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etib borish nazarda tutilganligi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi loyihalar tashabbuskorlari bilan birgalikda Dasturning ijrosi yuzasidan tizimli monitoring o'rnatish hamda natijalari yuzasidan har oy yakuni bo'yicha keyingi o'yning 10-sanasiga qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritib borishi belgilanganligi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalari rahbarlari Dastur asosiy parametrlari, maqsadli ko'rsatkichlari o'z vaqtida, sifatli va to'liq amalga oshirilishi, ajratilgan mablag'lar maqsadli hamda samarali sarflanishini ta'minlash uchun shaxsan javobgar etib belgilanganligi e'tiborga olinsin.

3. Namangan viloyat hokimining mazkur qarori bilan:

Quyidagilar:

2025-yilda Namangan viloyatida ob'ektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash bo'yicha ob'ektlarning manzilli ro'yxati 1-ilovaga muvofiq;

2025-yilda maxsus iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonolari, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonolari hamda yirik ishlab chiqarish loyihalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlash bo'yicha ob'ektlarning manzilli ro'yxati 2-ilovaga muvofiq;

2025-yilda loyihaoldi va loyiha hujjatlari ishlab chiqiladigan budjet tizimi budjetlaridan moliyalashtiriladigan ob'ektlarning manzilli ro'yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Davlat dasturlari ijro etilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo'yicha viloyat shtabi (U.Madraximov):

tuman (shahar) va hududlar darajasida Dasturning o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli ijro etilishi, shu jumladan har bir loyiha (ob’ekt) bo‘yicha mablag‘larning maqsadli va samarali sarflanishi, qurilish-pudrat ishlari sifatli bajarilishi, xarid qilish tartib-taomillari qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishini;

konsolidatsiyalashgan budjet mablag‘lari va boshqa markazlashgan manbalar hisobidan moliyalashtirish manbasi aniq bo‘lmagan, loyiha (loyihaoldi) hujjatlari mavjud bo‘lmagan, loyiha va pudrat tashkilotlari davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga amal qilmasdan aniqlangan loyihalar (ob’ektlar) bo‘yicha xarajatlar amalga oshirilmashligini;

Dastur doirasida 2025-yilda yakunlanishi nazarda tutilgan ob’ektlar belgilangan muddatlarda foydalanishga topshirilishi ustidan tizimli nazorat tashkil etish;

Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (M.Abdullaev), Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi (A.Jalilov), buyurtmachi tashkilotlar, aloqador boshqarma, idoralar hamda shahar-tumanlar hokimliklari bilan birgalikda:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-dekabrda PQ-454-son qarori talablari asosida ish tashkil etish topshirilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining tegishli o‘rinbosari zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov